

HIKOYADA SHAXS KONSEPSIYASINING O'ZGARISHI VA USLUBIY MODIFIKATSIYALAR: ADABIYOTDAGI YANGILANISHLAR

Toirova Zubayda Omongalldiyevna

Urganch Ranch texnologiya universiteti

“O‘zbek va xorijiy tillar” kafedrası o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqola hikoyada shaxs konsepsiyasining o'zgarishi va uslubiy modifikatsiyalarni tahlil qilishga qaratilgan. Maqolada hikoyada shaxs tasvirining tarixiy va zamonaviy davrlar o'rtasidagi farqlari, shuningdek, adabiy uslubdagi yangilanishlar va evolyutsiyalar o'rganiladi. Shaxsiy tasvirning psixologik, falsafiy va ijtimoiy jihatlari ko'rib chiqilib, zamonaviy hikoyalarda yangi uslublar va shaxs konsepsiyalarining qanday shakllanganligi yoritiladi.

Kalit so'zlari: Modifikasiya, yozuvchi ijodiy uslubi, shaxs konsepsiyasi, hikoya, roman, qissa, arxetiplar, individual uslub, o'zbek prozasi, streotiplar.

Abstract. This article is aimed at analyzing the changes in the concept of personality in the story and stylistic changes. The article studies the differences in the image of personality in the story between historical and modern periods, as well as innovations and evolutions in literary style. The psychological, philosophical and social aspects of the image of personality are considered, and how new styles and concepts of personality are formed in modern stories are highlighted.

Keywords: Modification, creative style of the writer, concept of personality, story, novel, short story, archetypes, individual style, Uzbek prose, template.

Абстрактный. Целью данной статьи является анализ изменений в концепции личности и стилистических модификаций в рассказе. В статье исследуются различия в изображении личности в повествовании между историческими и современными временами, а также нововведения и эволюции литературного стиля. Рассматриваются психологические,

философские и социальные аспекты образа себя, а также подчеркивается, как в современных историях формируются новые стили и концепции себя.

Ключевые слова: *Модификация, творческий стиль писателя, концепция личности, рассказ, повесть, роман, новелла, архетипы, индивидуальный стиль, узбекская проза, стереотипы.*

Yozuvchi badiiy asar yozarkan, uning dunyoqarashini shakllantirishda va o'ziga xos tarzda yondashishda konseptual ifoda tig'izligiga alohida e'tibor qaratadi. Aynan badiiy uslub bu kabi tushunchalarni sintezlaydi, qahramonlarni saralaydi, davr va zamon suratini ham chizishga mudomi intilib yashaydi. Shu ma'noda, ramziy, majoziy ifodalar bo'lsa ham, tarixiy aspektdagi an'anaviy surtlar tasvirida ham, bitta jihat yozuvchini qalam olib, uning butun-murakkabligini ochib berishga xizmat qiladi. Shaxs konsepsiyasi haqida so'z borarkan, yozuvchi ham ana shu tamoyilning bir uzvi ekanligi ayonlashadi. Negaki, bir-birini mustaqil to'ldiruvchi ifodalar sintezi – tarixiy aspektdagi ijtimoiy-madaniy umumlashmalarni keng qamrovli rakursda ifodalashga yo'naltiriladi.

Ma'lumki, badiiy adabiyotda modifikasiya hodisasi – o'zgaruvchan ahamiyat kasb etadi. Darvoqe, hikoya yoki roman, qissada mazkur masala turli xil darajada farqlanadi. U ijodkorning olam va odamni tasvirlashdagi tafakkur sarhadlarining chuqurligi va o'ziga xosligi bilan belgilanadi: “**Modus** – o'lchov, mezon, usul, yo'l, tariqa, tarz degan ma'nolarni bildirib keladi. Predmetning muayyan holatlardagi xususiyatini ifodalaydi. **Atribut** (o'ziga xoslik)dan shu jihati bilan farq qiladi. Spinozaga ko'ra, modus substansiyaning barcha o'tkinchi (ko'chuvchi) holatlarini ifodalovchi vosita hisoblanadi. Uning borligi o'ziga emas, substansiya va uning xossasiga bog'liq bo'ladi. Modusda, o'zining paydo bo'lishini yagona, abadiy, chegarasiz moddiy substansiyada topadigan narsalarning abadiy ko'payuvchanligi va ko'chuvchanlik sifati aks etadi”, [8.290] - deya “Falsafiy lug'at”da izohi berilgan. Mana shu tamoyil ham, dunyo adabiyotida – hikoya janrining “pir”i, “ustasi” deb tan olingan ulug' to'rtta yozuvchi borligini e'tirof

etishadi. Bular R.Tagor, J.London, A.Chexov va A.Qahhor [6.76-78]ning badiiy olamida yanada tiniqrov gavdalanadi. Bu hodisaning zamirida har bir yozuvchi o'zining individual uslubini topa olgan degan o'tkir falsafiy aqida ko'z oldimizda gavdalanadi.

Ta'kidlash joziki, "Zamonaviy milliy hikoyachiligimiz haqida so'z yuritayotib uch muhim jihatni tilga olmog'imiz lozim. Birinchidan, zamonaviy realistik o'zbek hikoyachiligining o'q tomiri xalq og'zaki ijodi namunalariga, shuningdek, qadimiy mumtoz adabiy meroslarimizga, jumladan, Rabg'uziy, Amiriy, Navoiy, Bobur, Xoja, Gulxaniy, Anbar Otin ijodida alohida o'rin tutgan nasriy asarlarga borib taqaladi, bu holat mutaxassislar tomonidan alohida e'tirof etilgan. Ikkinchidan, milliy hikoyachiligimizning yana bir o'q tomiri Bokkachcho, Servantes va Edgar Po singari adiblar asos solgan hamda turli millat hikoyachiligi namoyandalari tomonidan necha yuz yillar mobaynida davom ettirilgan holda bunyod etilgan jahon hikoyachiligi maktabidan bevosita bahramand ekanligini ham ta'kidlamog'imiz lozim. Uchinchidan, bir asrlik tarixga ega o'zbek milliy hikoyachiligi shu davr mobaynida juda katta shakllinish, yuksalish yo'lini bosib o'tdi, o'z qiyofasi, o'z mahorat maktabini yaratdi, yanada muhimi, o'zbek hikoyachiligi jahon hikoyachiligining ajralmas va salmoqli sahifasini tashkil etadigan darajaga ko'tarildi". [7.224]. Anglashiladiki, yangi davr o'zbek hikoyachiligining dastlabki ildizlari va taraqqiyot tendensiyalari XX asr jadid adabiyoti vakillari poetik izlanishlarining mantiqiy davomi sifatida bo'y ko'rsatdi. Buning eng muhim sabablaridan biri shuki, insonga munosabat o'zgarishi bo'ldi. Oldindari Markaziy Osiyo xalqlaridagi kayfiyat odamga xo'jalik mehnatini qilib yuruvchi va tepadan nima buyurilsa, "labbay" tarzida bajaaruvchi bir olomon sifatida qaraganligidadir. Buni hech bir olim yoki tarixchi inkor qilishi mumkin emas.

Prof. A.Rasulova bu haqda shunday mulohazalarni ilgari suradi: "Badiiy ijodda g'oyaning pishiq-puxtaligi qanchalik muhim bo'lsa, ilmiy tadqiqotda metodologiyaning asosiligi shunchalik ahamiyatlidir. Ijodkor g'oyani qanchalik

pishitsa, sarlavha, ilk jumla, matn, timsolu xarakterlar, badiiy qurilma joziba, tiniqlik kasb etadi. Olim metodologik asosni to'g'ri belgilasa, "izm"lar labirintidan qiynalmay chiqib ketadi, nozarur dalil, tafsilotga berilmaydi. Badiiy g'oya ijodkor jonu jahonidan sizib chiqadigan betakror topilma. Metodologik asos – ilmiy xodim ongida kechadigan murakkab jarayonlar hosilasi. O'qish, o'rganish, qiyoslash, tajriba orttirish, ruhiy-aqliy izlanish samarasi o'laroq badiiy g'oya asar bo'lib tug'iladi; ilmiy-nazariy tadqiqotda tutib turadigan metodologik tayanch mustahkam g'oyaday diqqatni tortadi". [4.85] Darhaqiqat, prof.A. Rasulov masalaning ikkala tomoniga jiddiy to'xtalib o'tish zaruratini keltirar ekan, mashishiy turmush bilan murakkab hayot kechmishlari orasida ijodkor botinidagi rosa pishib etilgan adabiy hodisa – nazariy konseptual aqidalar zahirida yuzaga chiqar ekan, undan manfaatli istifoda qilish yozuvchi shaxsiyati bilan bog'liq degan g'oyani ilgari surmoqda. Ayniqsa, badiiy uslub nihoyatda keng tushuncha. Uning tabiatida inson fenomenini talqin etib, olam va odam sirlarini bilishga olib boruvchi ixlma-xil fragmentlar galeriyasi o'z tajassumini topishi darkor degan, konsepsiya yuzaga kelmoqda. Demak, yozuvchi har qanday sharoitda o'z individual uslubini topmas ekan, yozishga o'tirgan ondan boshlangan tug'yon etarlicha o'quvchi qalbiga yo'l topishiga erishish qiyinlashadi. Ana shu tamoyil nazariy jihatdan to'g'ri ochiqilanishi uchun yozuvchi-qahramon-muhit uchligi uyg'un ravishda tashkillantirilishi lozim.

XX asr boshlaridan to hozirga qadar iste'molda bo'lgan tasvir me'yorlariga diqqat qaratadigan bo'lsak, uslubning o'zi nima, badiiy uslubning ijodkor fenomenini qayta idrok etishda nimalarga e'tibor berishi lozim degan o'zgarmas qonuniyat tamoyili har bir tafakkurli insonni o'ylantirishi tabiiy holdir. Har bir davrning o'ziga xos badiiy-ijodiy yo'riqnomasi sifatida olam va odamni istifoda qiluvchi fragmentlar bo'ladiki, busiz inson shaxsi ham, xarakteri ham, davrning diqqatga sazovor maishiy manzarasi ham yuzaga etarlicha chiqishi murakkablik tomon o'sib boradi. Dunyo adabiyotida badiiylikning oliy kategoriyalari mavjudki, bu haqda shaxs va qahramon intellekti namoyishi o'ziga xos halqani tayin etishi

muqarrardir. Negaki, XX asrning 60-yillarida o'zini ifoda qilish an'anasi O'.Umarbekov, Sh.Xolmirzaev, O'.Hoshimov, E.A'zam, M.M.Do'st kabi yozuvchilarda xilma-xil ifoda uslublarining diektik aloqasini namoyon etdi. Ayni paytda sho'ro siyosati, mafkuraviylashgan badiiy mezonlar asta-sekinlik bilan o'zining o'zanida, yanada namoyon bo'la boshladi. Bu milliy tuyg'u va ongda kechuvchi mental xususiyatlar bilan bog'liqligi hamda ularning davrdan o'zib borayotgan tafakkur sarhadlarining kengayishi bilan bog'liq jarayon ekanligi oydinlashdi.

Prof.S.To'laganova badiylikning yuzaga chiqish omillari nomli maqolasida ijodkor shaxsi haqida quyidagi mulohazalarini bayon qiladi: "Ijodkor shaxsi nihoyatda murakkab tushuncha. Ijodkor tarjimai holini uning o'zi yaratgan asarlari bilan uzviy bog'lab o'rganish adabiyotshunoslikda masalaning biz shu kungacha e'tibor qilmagan jihatlarini anglashimizda muhim vosita vazifasini bajaradi. Biografik metod asoschisi Sent-Byov: "Har qanday badiiy asar bu – so'zlayotgan shaxsdir, shaxs yoki insonni asaridan ayro tushunmaslik kerak", deb aytganidek ijodkor hayoti va ichki dunyosidagi iztirob va kechinmalar uning har bir asarida iz qoldirishi aniq. Aslida, badiiy asar bu ijodkor tafakkuri nusxasining ko'chirmasidir". [5.] Binobarin, XX asrning 80-yillarida badiiy nasrga kirib kelgan Asad Dilmurod ana shunday ijodkorning tafakkur tarzi bilan bevosita uyg'unlashib, muvofiq tushuncha va fragmentlar silsilasida namoyon bo'lishiga erishgan yozuvchilardan biri sanaladi.

Argentinalik yozuvchi va shoir, faylasuf Xorxe Luis Borxesning quyidagi mulohazalariga tayanadigan bo'lsak, yozuvchi Asad Dilmurodning har bir asarida insonni fikrlash orqali o'zligini, o'zligi orqali kelajagiga ishonch tuyg'usining ortishini namoyon qila boradi. Deylik oddiy hikoya shiddati o'ta og'ir, silliq ramzlar, kutilmagan burilishlar, syujetning bir-birini to'ldiruvchi arxetiplari qahramon ong ostida kechuvchi situasialar bilan bezatiladi: "Fikrlash – umumlashtirish demakdir va shunday ekan, biror narsani tasdiqlash uchun biz Platonning arxetip"lariga(**Arxetip (yunoncha: arche – boshi va typos - obraz –**

destavvalgi obraz, g'oya, analitik psixologiyaning asosiy kategoriyalaridan biri.) murojaat qilishimiz kerak. Shunday ekan, adabiy janrlar mavjudligini tan olish uchun bizga nima xalaqit beradi? Bunga o'zining mulohazalarimni ham qo'shgan bo'lardim: janr, ehtimol, matnning o'zi bilan emas, ko'proq uni o'qish vositasi bilan aniqlanadi. Estetik dalil o'quvchi va matnning birikishi natijasida paydo bo'ladi. Zero, kitobning o'zi shunchaki moddiy obyektidir. Kitob o'zining haqiqatdan mavjudligiga uni o'quvchi ochgan paytdagina ega bo'ladi. Faqat o'shandagina o'z ahamiyayati bo'yicha uning yaratilish ongiga teng bo'lgan favqulodda hodisa ro'y beradi". [1.160] Haqiqatdan ham, yozuvchi – o'zining individual uslubiga ega bo'lishi uchun yillar davomida o'z ongu shuurida, tajriba va intilishlari negizida erishishi tayin. X.L.borxesning mana shu iqtibosida ham fikrlashning umumlashma ko'rinishiga kirib borish, dunyoning bizga qorong'u puchmoqlarida ro'y berishi mumkin bo'lgan hodisalarga quloq tutish, hech bo'lmagan taqdirda ularni sinovdan o'tkazish, sintezlash masalasini tushunishimiz lozim. Dunyoning biz anglamagan botiniy xilqatimizdagi hali yuzaga chiqmagan ong osti hislarimiz "ramz" va "majoz" tilida o'ta murakkab bir sharoitdagi tasvirlar galeriyasi bilan boshqacha tarzda namoyon bo'lishi ham ehtimoldan holi emas!

F.f.d. M.Qo'chqorova yozishicha: "Hozirgi o'zbek prozasi uslub va ijodiy originallik yaratishda XX asrda yashab, ijod etgan o'zbek prozasining yirik vakillari va asoschilari A.Qodiriy, Cho'lpon, Fitrat, Behbudiy, Hamza, A.Qahhor, G'.G'ulom, Oybek, A.Muxtor singari ijodkorlarning adabiy mahorat maktabidan o'rgandi. Buni o'zbek prozasining individual qiyofasini yaratishdagi birlamchi adabiy omil sifatida baholash mumkin. Bundan tashqari, Sharq mumtoz adabiyoti an'analari, o'zbek xalq og'zaki ijodining hayotbaxsh ta'siri ham hozirgi o'zbek prozasining shakllanishida asosiy poydevor vazifasini bajardi. Biroq tilga olingan omillardan tashqari, bugungi kun yozuvchilari uchun dunyo adabiyotining yirik adiblari, jumladan, M.F.Dostoevskiy, E.Xeminguey, U.Folkner, Herman Hesse, G.G.Markes, F.Kafka, A.Kamyu, J.Joys, Dino Busatti, M.Bulgakov, Ch.Aytmatovlarning proza sohasidagi ulkan ijodiy tajribalari, kutilmagan badiiy

shartli topilmalari bilan bog'liq mahorat maktabi, ijodiy ta'sir maydoni bo'lib xizmat qildi". [3.33] Keltirilgan iqtibosdan shunisi ayonlashadiki, hayotning har bir o'lchovi ma'lum bir uslublar tig'izligida namoyon bo'ladi. Modda va ruh aynan yozuvchi uslubi orqali rivojlanadi. Shuni unutmaslik kerakki, badiiylik xilma-xil ifodalar sintezidan oziqlanadi. U mavhumlikdan – aniqlik sari o'tib turuvchi tushunchalarni akslantira borishida ham yanada yaqqol ko'zga tashlanadi. Yozuvchi Asad Dilmurodning – ***hikoyadan – qissaga – qissadan – romanga, romandan – essega*** o'tib, o'sib, sayqallanib boruvchi badiiy uslubi ana shu konsepsiyani o'zida mujassamlashtira olganligi bilan real mohiyatga evriladi. Buni quyidagi tavsiflarda ham o'ziga xos tarzda talqin etishimiz mumkin:

1. Yozuvchi ilk jumla, hikoyadagi tugun, tugundan keyin keluvchi kompozision vositalarni ko'pincha o'zining nutqi orqali tushuncha berishdan boshlaydi.

2. Adib ko'p hollarda avval g'oyani aniqlashtirib, syujetga evrilish bosqichlariga to'xtalib o'tsa, mavhum qoliplash uslubi F.Kafka, Borxes, A.Kamyu, Dostoevskiy kabi jahon adiblari uslubini eksperiment qilganligida qabarib ko'rinadi.

3. Yozuvchining 1980 yillardagi ilk ijodiy izlanishlarida o'zi tug'ilib o'sgan Samarqand qishloqlari, talabalik davridagi oddiy qishloq odamlarining hayot kechirishi, o'zi tanigan, bilgan va yaqindan xarakterlarini o'rgangan hamqishloqlari tabiatini talqin etganligida seziladi.

4. Yozuvchi keyinchalik jahon adabiyoti bilan yaqindan tanishuvi natijasida, ayniqsa, G'arb va Amerika badiiy tafakkurininng o'zbek adabiyotiga rus tili yoki to'g'ridan-to'g'ri kirib kelishi bilan bog'liq streotiplar fonida o'zlashtirilishida ochiqlanadi.

5. Badiiy uslubning ikkki yo'sinda: tarixiy haqiqat va badiiy to'qima, hayotiy ziddiyatlar hamda ko'hna tarix obidalaridan xabar beruvchi asarlar negizida sayqallab borganligidan dalolat beradi.

6. Adib o'ziga haqiqat deb bilgan mifologik kartinalardan o'quvchining fikrlash kreaktivligini rivojlantirishga mantiqiy urg'u berganligida yuazaga

chiqadi.

Mana shu tasniflarning o'ziyoq yozuvchi ijodiy uslubi va shaxs konsepsiyasi tig'izlashuvini to'laqonli dalolatlab, insoniyat oldida turgan olamshumul muammolar mohiyatini xilma-xil obrazlarda keng istifoda qilish tamoyilini tartiblashuviga katta zamin hozirlaydi. Zukko adabiyotshunos N.Mallaev qayd etishicha: "Hikoya Yaqin va O'rta Sharq xalqlar adabiyotida keng tarqalgan janrlardan biridir. Hikoya – yozma adabiyot bilan og'zaki ijodiyotni bir-biriga bog'langan muhim omil. Xalq hikoyalari bilan kitobiy hikoyalar o'zaro chunon yaqinki, ularni qat'iy chegaralash ko'pincha amri maholdir. Chunki hikoya xalq rivoyatlaridan kitobga, kitobdan xalq hikoyachiligiga o'tib borgan. Shu bilan birga, ma'lum bir xalqning adabiyoti (yoki folklori) zaminida vujudga kelgan hikoya ikkinchi bir xalq tomonidan qayta ishlanib, "o'zlashib", uning adabiyoti bisotiga qo'shilib ketar edi. Binobarin, syujet va kompozisiya, obrazlar sistemasi jihatdan bir-biriga monand hikoyalar, bir tomondan, ijtimoiy hayot, tarixiy sharoitning o'xshashligi natijasida bir-biridan mutasno g'olatda vujudga kelsa, ikkinchi tomondan, adabiy aloqalarning mahsuli sifatida paydo bo'ladi". [2.188] Jumladan, turkiy xalqlar adabiyotidagi nazmiy asarlarning – hikoya shakliga o'tishi, bir-ikkki asr mobaynida taraqqiy etish pallasiga kirgan. Shunday ekan, joriy kunda g'arb adabiyoti, hamda sharq an'analari negizida qayta shakllanib, rivojlanib borayotganligi yuqoridagi mulohazaalarimizni to'laqonli dalolatlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Borxes Luis Xorxe. "Sirli mo'jiza". –T: "Yangi asr avlodi". 2019. –B.160.
2. N.Mallaev. Alisher Navoiy va xalq ijodiyoti. G'.G'ulom nomidagi adabiyot san'at nashriyoti. 1974.-B.188.
3. Qo'chqorova M. Hozirgi o'zbek nasrida badiiy shartlilik. Filol.fan.dok. diss.si. –T., 2020. –B.33.
4. Rasulov A. Konsepsiya zarurati. T: "Adib". Ozod vatan saodati. . –B.85.

5. To'laganova S. Ijodkor shaxsiyati va badiiy qahramon.//<https://core.ac.uk/download/pdf/230427848.pdf>
6. Xolmirzaev Sh. Hikoya haqida// *Sharq yulduzi*. 1971 yil, 1-son. –B.76-78
7. Xurshid Do'stmuhammad. Milliy hikoya: izlanishlar, yutuqlar, istaklar. Ozod vatan sog'inchi. Adabiy tanqid. Toshkent "Adib"2004. 224.b
8. Философский словарь. – Москва: Политиздат, 1987. – С. 290.